

OILAVIY MUNOSABATLAR KONTEKSTIDA ZO‘RAVONLIKKA MOYIL XULQ-ATVOR SHAKILLANISHI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Elmurodova Sohiba Shokir qizi

Shahrisabz davlat Pedagogika insitituti 1-bosqich magistranti.

sohibaelmurodova2003@gmail.com

orcid:0009-0005-6306-5682

Rasulova Iroda Mansurovna

Psixologiya fanlari nomzodi PhD.

E-mail: iroda.rasulova.86@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18509508>

Annotatsiya. Maqolada oilada zo‘ravonlik holatlari yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, psixologik va boshqa omillar tadqiqi bayon etiladi. Shuningdek zo'ravonlikning avlodlar aro uzatilishi ya'ni shunday muhitda ulg'aygan shaxsning kelajakda shu ishni takrorlashi qanchalik yuqori yoki past chiqish ehtimoli tahlil qilinadi. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: zo'ravonlikka moyil xulq atvor, avlodlararo uzatish, oilaviy muhit, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, bolalikdagi tajriba, oilaviy munosabat, profioaktiv chora-tadbir.

Аннотация. В статье описывается исследование социальных, экономических, культурных, психологических и других факторов, влияющих на возникновение домашнего насилия. Также анализируется межпоколенческая передача насилия, то есть, насколько высока или низка вероятность того, что человек, выросший в такой среде, повторит тот же поступок в будущем. Предложены меры, направленные на предотвращение домашнего насилия.

Ключевые слова: насильственное поведение, межпоколенческая передача, семейная среда, экономические факторы, социальные факторы, детский опыт, семейные отношения, профилактические меры.

Abstract The article describes the study of social, economic, cultural, psychological and other factors that influence the occurrence of domestic violence. It also analyzes the intergenerational transmission of violence, that is, how high or low the probability of a person growing up in such an environment repeating the same act in the future. Measures aimed at preventing domestic violence are put forward.

Keywords: violent behavior, intergenerational transmission, family environment, economic factors, social factors, childhood experience, family relationships, preventive measures.

Tadqiqotlarga ko'ra oilaviy zo‘ravonlik hodisasining shakillanishida va hodisaning yuzaga kelishida bir nechta omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bolalikda bu hodisaga guvoh bo'lish yoki uning qurboniga aylanish kelgusida shunday xulq-atvorga moyil shaxs sifatida ulg'ayishga olib keladi. Bunday bolalar, haddan tashqarinuyatchan, nutq va rivojlanishdan ortda qolgan, ijtimoiy moslashuvda muammolari mavjud holda ulg'ayadilar.

Zo'ravonlikni me'yor sifatida qabul qilgan bolalar, kelajakda o'z oilasiga ham ayni shu yondashuvni takrorlaydilar. Holat meros sifatida avloddan avlodga o'tib, jamiyatda tazyiq va zo‘ravonlikni yanada ommalashuviga olib keladi.

Shuningdek, jamiyatdagi zo'ravonlikni oqlovchi ya'ni erkak ayoldan ustun bo'lishi kerak ruknidagi qarashlar va ayollar itoatkor bo'lishi kerakligi haqidagi yondashuvlar zo'ravonlikni tabiiy holat sifatida qabul qilinishiga olib keladi. Bir so'z bilan aytganda jamiyatdagi doimiy, umumqabul qilingan stereotiplar, qadriyatlar va ba'zi an'analar oiladagi zo'ravonlik hodisasini e'tiborsiz qabul qilinishiga olib keladi.

Bu hodisaga ta'sir etuvchi yana bir asosiy omillar qatorida, oiladagi rollar taqsimotini keltirib o'tishimiz mumkin. Bular, iqtisodiy rollarning notengligi (bir shaxs pulni to'liq nazorat qilishi, ikkinchi tomon garchi o'zi pul topsada, moliyaviy qaram bo'lib qolishi, ishsizlik, kambag'allik oilada stress va nizolarni kuchaytiradi), bolalar orasidagi noto'g'ri rollar (masalan, ota-onalar o'rnini bosuvchi, ukalarga qarovchi "katta odam" rolining haddan ortiq ko'p yuklamasi), boshqaruvchi - bo'ysunuvchi roli (bir odambarcha qarorlarni chiqaradi boshqalar uni qabul qilishga majburligi) va h.k.

Oilada zo'ravonlik hodisasining yuzaga kelida psixologik omillar ta'siri, xususan, o'z-o'zini past baholash (o'zini ojiz his qilgan shaxs, o'z ustunligini kuch ishlatish orqali namoyon qilishga urinadi), o'zidagi stress va jahlni jilovlay olmaslik, ruhiy travmalar ham alohida ahamiyatga ega.

Zo'ravonlikka olib keluvchi asosiy sabablar orasida alcohol va giyohvand moddalar ta'siri shuningdek ma'naviy savodsizlik kabi omillar alohida ahamiyat kasb etadi.

Zo'ravonlik jamiyadga moddiy va ma'naviy zarar keltiradi. Zo'ravonlik qurboni sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam markazlariga murojaat qiladi. Ish unumdorligi bitta ishchiga kamayadi.

Ushbu muammoni bartaraf etishda jazolovchi va huquqiy chora - tadbirlardan tashqari psixologik, pedagogik, madaniy, ijtimoiy yondashuvlarni ham qo'llash talab etiladi. Ayniqsa, zo'ravonlik sodir etgan yoki uning qurboniga aylangan shaxslar bilan psixologik treninglar tashkillashtirish ayni muddaodir.



Oilada zo'ravonlik hodisasining o'ziga xos sikli mavjud. Ya'ni u tasodifan sodir bo'lmaydi. Ushbu nazariya 1979- yil amerikalik psixolog Lenor Uolker tomonidan ishlab chiqilgan. Uolker bu siklni 4 ta asosiy bosqichga bo'lgan.

Dastlabki bosqichi:" keskinlikning ortishi" fazasi bo'lib, bunda o'zaro mayda kelishmovchiliklar va arziyas xatolar boshlanadi. Ikkinchi bosqich: "zo'ravonlikka hodisasi" bosqichi bo'lib ,ushbu fazasada zo'ravonlik yuzaga chiqadi va bu jismoniy, jinsiy yoki kuchli ruhiy ko'rinishda bo'ladi. Uchinchi bosqich esa "yarashuv bosqichi " bo'lib, zo'ravonning kechirim so'rashi shaklida namoyon bo'ladi. To'rtinchi bosqich esa, "Tinchlik davri" fazasi. Bunda hammasi o'z iziga tushgandek ko'rinadi, ammo muammo to'liq yechilmaganligi bois hodisa yana birinchi siklga qaytadi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy munosabatlardagi zo'ravonlik hodisasi shunchaki "oilaviy sir" emas, balki ijtimoiy inqirozdir. Chunki mustahkam, o'zaro birdam, hamfikir va hamjihat oilalar birlashib, obod va ahil ijtimoiy muhitni hosil qiladi. Shunday ekan, bu hodisaga befarq bo'lmasdan, unga qarshi ijtimoiy, huquqiy hamda psixologik nuqtai nazardan kurashmog'imiz lozim.

Lenor Uolkerning nazariyasi shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlik ruhidagi xulq-atvor o'z - o'zidan to'xtab qolmaydi va aksincha vaqt o'tishi bilan kuchayib borish xususiyatiga ega.

Zo'ravonlikka moyillik shakllanishida noto'g'ri ijtimoiy stereotiplar, bolalikdagi turli ruhiy travmalar, ma'naviy intellektning pastligi kabi omillar asosiy rol o'ynaydi. Oilaviy zo'ravonlik hodisasini bartaraf etish, nafaqat davlat organlarining, balki har birimizning vazifamizdir. Zero har bir inson, ayniqsa, ayollar va bolalar o'z uylarida o'zlarini xavfsiz his etishga haqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Walker, L. E. The Battered Woman Syndrome. — 3rd edition. — New York: Springer Publishing Company, 2009. — 496 p. (Lenor Uolkerning zo'ravonlik sikli bo'yicha asosiy asari).
2. Antonyan, Yu. M. Psixologiya naxiliya / Yu. M. Antonyan. — Moskva: Prior, 2011. — 320 s. (Zo'ravonlik psixologiyasi bo'yicha fundamental darslik).
3. Murodova, S. Sh. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi: O'quv qo'llanma / S. Sh. Murodova. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 210 b.
4. Rasulova, I. M. Oilada tajovuzkor xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik determinantlari: Psixol. fan. nomz. ... diss. avtoref. — Toshkent, 2021. — 24 b.
5. Bandura, A. Social Learning Theory / A. Bandura. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. — 247 p. (Zo'ravonlikning avlodlararo o'tishi — ijtimoiy o'rganish nazariyasi uchun).
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida: [2019-yil 2-sentabrdagi O'RQ-561-son] // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
7. Abramova, G. S. Prakticheskaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / G. S. Abramova. — Moskva: Akademicheskii proyekt, 2015. — 480 s.
8. Eshmetov, S. S. Shaxsda tajovuzkorlik shakllanishining psixologik xususiyatlari // Psixologiya jurnali. — 2020. — № 4. — B. 12–18.